

BANK AUDITING IQTISODIY MOHIYATI VA AUDITNING XALQARO STANDARTLARI TIZIMIDAGI NAZARIY ASOSLARI

Xayrullayev O'tkir Ismailovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20084583>

Annotatsiya. Tezisdan bank auditining iqtisodiy mohiyati, predmet doirasi va auditning xalqaro standartlari tizimidagi nazariy asoslari tadqiq etilgan. Bank auditi moliyaviy hisobot ishonchliligini baholash bilan birga aktivlar sifati, kapital yetarliligi, likvidlilik, ichki nazorat muhiti va risklarni boshqarish holatini qamrab oluvchi kompleks nazorat instituti sifatida talqin qilingan.

Kalit so'zlar: bank auditi, auditning xalqaro standartlari, audit obyekt, audit predmeti, kapital yetarliligi, likvidlilik, prudensial nazorat, kredit portfeli, muammoli kreditlar, risk-menejment.

Аннотация. В тезисе исследованы экономическая сущность банковского аудита, его предметная область и теоретические основы в системе международных стандартов аудита. Банковский аудит интерпретируется как комплексный институт контроля, охватывающий не только подтверждение достоверности финансовой отчетности, но и оценку качества активов, достаточности капитала, ликвидности, среды внутреннего контроля и состояния управления рисками. Разграничены объект, предмет и функциональный охват банковского аудита, классифицированы общие и специальные критерии, применимые к нему в системе МСА. Представлен анализ тенденций развития банковской системы Узбекистана с точки зрения аудита.

Ключевые слова: банковский аудит, международные стандарты аудита, объект аудита, предмет аудита, достаточность капитала, ликвидность, пруденциальный надзор, кредитный портфель, проблемные кредиты, риск-менеджмент.

Abstract. The thesis examines the economic essence of bank audit, its subject area and theoretical foundations within the system of International Standards on Auditing. Bank audit is interpreted as a complex institution of control, encompassing not only the assessment of financial statements' reliability but also the evaluation of asset quality, capital adequacy, liquidity, internal control environment and risk management. The object, subject and functional scope of bank audit are differentiated, and general and special criteria applicable in the ISA system are classified. An analysis of bank system development trends in Uzbekistan is provided from an audit perspective.

Keywords: bank audit, International Standards on Auditing, audit object, audit subject, capital adequacy, liquidity, prudential supervision, loan portfolio, non-performing loans, risk management.

Jahon iqtisodiyotida globalashuv jarayonlarining chuqurlashuvi, moliyaviy bozorlarning murakkablashuvi va bank operatsiyalarining ko'lam jihatdan kengayishi tijorat banklari auditini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish zaruratini kuchaytirmoqda. Bank tizimi har qanday mamlakat moliya-kredit mexanizmining tayanch bo'g'ini bo'lib, iqtisodiyotda pul resurslarini qayta taqsimlash, to'lov aylanmasini tashkil etish va moliyaviy vositachilikni amalga oshirish orqali makroiqtisodiy barqarorlikka sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Bank auditining o'ziga xosligi shundaki, u oddiy xo'jalik yurituvchi subyektlar auditini bilan solishtirganda murakkabroq axborot muhiti, moliyaviy instrumentlar xilma-xilligi, kredit portfeli sifati, valyuta operatsiyalari, prudensial me'yorlar, kutilayotgan kredit zararlari, likvidlikni boshqarish va korporativ boshqaruv tizimi bilan chambarchas bog'liq. Shu sababli bank auditini samarali tashkil etish uchun auditning xalqaro standartlari talablari, bank tizimining institutsional rivojlanishi, hisob va hisobot shakllanishining sektoral xususiyatlari hamda banklarga xos riskli zonalarni birgalikda tadqiq etish talab etiladi.

Bank auditini iqtisodiy mazmuniga ko'ra bank faoliyati natijalarining moliyaviy hisobotlarda haqqoniy va xolis aks ettirilganligini, bank operatsiyalarining amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlarga muvofiqligini, ichki nazorat tizimining yetarliligini hamda risklarni boshqarish amaliyotining samaradorligini mustaqil professional baholash jarayonidir. Uning mohiyati faqat moliyaviy hisobotning ishonchliligini tasdiqlash bilan cheklanmaydi; bank auditini manfaatdor tomonlar uchun axborot riskini kamaytirish, boshqaruv sifatini oshirish va bank tizimining barqarorligiga ko'maklashish vazifasini ham bajaradi. Azizov (2009) banklarda tashqi auditni tashkil etish samaradorligini moliyaviy shaffoflik va zamonaviy nazorat mexanizmlarini kuchaytirish bilan bog'laydi.

Bank auditining predmeti bank faoliyati jarayonida yuzaga keladigan buxgalteriya, moliyaviy, nazorat va axborot munosabatlari yig'indisidan iborat. Uning obyektlari esa bank balansidagi aktivlar va majburiyatlar, kredit portfeli, depozitlar, qimmatli qog'ozlar, hisob-kitob operatsiyalari, valyuta operatsiyalari, kapital, rezervlar, daromad va xarajatlar, shuningdek moliyaviy hisobotning alohida moddalarini hisoblanadi. Ushbu yondashuv Ochilov (2022) ilmiy xulosalari bilan hamohang bo'lib, u majburiyatlar hisobi va auditini xalqaro standartlar talablari darajasida tashkil etish bilan bog'liq masalalar hozirgacha to'liq yechilmaganini qayd etadi.

Bank auditining nazariy modeli uch tayanch savol asosida shakllantiriladi: 'nima tekshiriladi?', 'nimaga baho beriladi?' va 'qanday auditorlik vazifalari bajariladi?'. Birinchi savolga javob audit obyektlari ro'yxatini tashkil etadi: balans moddalarini, ichki nazorat protseduralari, axborot tizimlari, korporativ boshqaruv. Ikkinchi savolga javob audit predmetining mazmunini ifodalaydi: ko'rsatkichlarning ishonchliligi, qonuniyligi, haqqoniyligi va riskka mosligi bilan bog'liq munosabatlar tizimi. Uchinchi savolga javob audit funksional qamroviga - moliyaviy hisobot ishonchliligini tasdiqlash, ichki nazoratni baholash, prudensial muvofiqlikni tahlil qilish va auditorlik fikrini shakllantirishga - yo'naltiriladi.

So'nggi yillarda bank tizimining institutsional ko'lami sezilarli kengaydi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlariga ko'ra 2024-yil yakuniga kelib O'zbekistonda jami kredit tashkilotlari soni 229 taga yetgan bo'lib, shundan 36 tasi tijorat banklari, 193 tasi nobank kredit tashkilotlari edi. 2025-yil oxiriga kelib (Markaziy bank, 2025) jami kredit tashkilotlari soni 260 taga oshgan, 24/7 shoxobchalar esa 5.615 taga ko'paygan. Bu holat bank tizimining rivojlanishi endilikda faqat klassik banklar sonining o'sishi bilan emas, balki bankdan tashqari moliyaviy institutlar va mijozga yaqin xizmat kanallarining kengayishi bilan tavsiflanayotganini ko'rsatadi.

Bank tizimi rivojlanishining muhim ko'rsatkichlaridan biri prudensial barqarorlik mezonlari hisoblanadi. Markaziy bank (2025) metodologik sharhiga ko'ra, kapital yetarliligi ko'rsatkichi regulyativ kapital summasining tavakkalchilikni hisobga olgan holdagi aktivlar umumiy summasiga nisbati orqali hisoblanadi. 2024-yil noyabr holatida likvid aktivlar hajmi

137 920 mlrd so'mni, qisqa muddatli majburiyatlar 327 708 mlrd so'mni tashkil etgan, likvidlilikni qoplash me'yori koeffitsienti 191,0 foizga yetgan. Bunday yondashuv bank tizimining rivojlanishi oddiy aktivlar hajmi o'sishi bilan emas, balki tavakkalchilikka mos kapital bazasi shakllanishi bilan baholanishini ko'rsatadi.

Auditning xalqaro standartlari tizimida bank auditiga tatbiq etiladigan talablarni umumiy va maxsus mezonlarga ajratish maqsadga muvofiq. Umumiy mezonlar tarkibiga auditor mustaqilligi, professional skeptisizm, professional mulohaza, muhimlik, auditorlik riski, auditorlik dalillarining yetarliligi va maqbulligi kabi tamoyillar kiradi. Maxsus mezonlar esa bank sohasi uchun xos kapital yetarliligi, likvidlilik, kredit portfeli sifati, muammoli kreditlar, kredit yo'qotishlari rezervlari, moliyaviy instrumentlar, prudensial normativlar va risk-menejment tizimi sifatiga doir talablardan iborat.

1-jadval

Auditning xalqaro standartlari tizimida bank auditiga taalluqli umumiy va maxsus mezonlar tasnifi¹

Mezonlar guruhi	Asosiy mazmuni	Bank auditidagi namoyon bo'lishi	Amaliy ahamiyati
Umumiy mezonlar	Auditorning universal kasbiy va protsessual talablari	Mustaqillik, xolislik, professional skeptitsizm, muhimlik, auditorlik riski, dalillar yetarliligi, hujjatlashtirish, kommunikatsiya	Audit sifatining umumiy asosini yaratadi
Maxsus mezonlar	Bank faoliyatining sektoral xususiyatidan kelib chiqadigan talablar	Kapital yetarliligi, likvidlilik, kreditlar sifati, rezervlar, muammoli kreditlar, moliyaviy instrumentlar, prudensial normativlar	Auditni bank sektoriga moslashtiradi
Riskga yo'naltirilgan mezonlar	Yuqori xavfli zonalarni aniqlash va ularga ustuvor e'tibor qaratish	Kredit riski, likvidlilik riski, foiz riski, valyuta riski, operatsion risk	Muhim buzib ko'rsatish ehtimolini kamaytiradi
Axborot mezonlari	Hisobot ishonchliligi va oshkoralik darajasi	Ochiqlashlar yetarliligi, baholashlarning asoslanganligi, hisobot va izohlarning haqqoniyligi	Auditorlik fikrining ishonchliligini oshiradi
Nazorat mezonlari	Ichki nazorat va boshqaruv tizimiga qo'yiladigan talablar	Ichki audit, komplaens, limitlar tizimi, IT-kontrollar, vakolatlar taqsimoti	Xatolar va firibgarlik xavfini kamaytiradi

¹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

Tsurova (2003) bank kapitali yetarliligi auditi masalalarini, Grigoryeva (2022) esa bankning moliyaviy barqarorligini yo'qotish xavfini oldindan aniqlash uchun nazorat-tahliliy vositalar muntazam qo'llanishi lozimligini ta'kidlaydi. Bu yondashuvlar bank auditing maxsus mezonlari faqat hisobot raqamlari bilan cheklanmasdan, ularni yuzaga keltiruvchi nazorat infratuzilmasini ham qamrab olishi kerakligini ko'rsatadi. Eltweri (2015) audit kasbini xalqaro standartlarga muvofiq tartibga solish zarurligini, Castro (2012) makroiqtisodiy determinantlarning bank kredit riskiga ta'sirini asosli ravishda ko'rsatib bergan.

Bank auditing funksional qamrovi - moliyaviy hisobot ishonchligini tasdiqlash, aktiv va majburiyatlarni baholash, kapital yetarliligi va likvidlilik ko'rsatkichlarini tahlil qilish, ichki nazorat tizimini baholash, hamda manfaatdor tomonlar uchun axborot qiymati yuqori bo'lgan auditorlik fikrini shakllantirishni qamrab oladi. Bunday ko'p qatlamli qamrov auditorga bank faoliyatini bir vaqtning o'zida bir nechta jihatdan baholash imkonini beradi: moliyaviy, prudensial, operatsion va axborotga oid jihatlardan.

2-jadval

O'zbekistonda bank tizimi institutsional ko'rsatkichlari dinamikasi

Ko'rsatkich	2024-yil yakuni	2025-yil yakuni	O'zgarish
Jami kredit tashkilotlari soni	229 ta	260 ta	+31 ta
Tijorat banklari soni	36 ta	36 ta	o'zgarmas
Nobank kredit tashkilotlari	193 ta	224 ta	+31 ta
Mikromoliya tashkilotlari	100 ta	132 ta	+32 ta
24/7 shoxobchalar	4 447 ta	5 615 ta	+1 168 ta
Bank xizmatlari markazlari	1 720 ta	1 729 ta	+9 ta

Mazkur dinamika bir nechta muhim auditorlik xulosalariga olib keladi. Birinchidan, tijorat banklari soni o'zgarmagan bo'lsa-da (36 ta), bank tizimi institutsional jihatdan diversifikatsiyalashgan: nobank kredit tashkilotlari ulushi sezilarli oshgan. Bu auditorlik nazoratining yangi obyektlari - mikromoliya tashkilotlari va lombardlar - paydo bo'lganini bildiradi. Ikkinchidan, 24/7 shoxobchalar 26,3 foizga ko'paygan, bu bank xizmatlarining raqamlashuvi va avtomatlashuvi tendensiyasini ko'rsatadi. Auditor uchun bu IT-nazoratlar, kiber-xavfsizlik va elektron tranzaksiya jurnallari kabi yangi audit yo'nalishlarining ahamiyati kuchayishini anglatadi.

Markaziy bank byulletenida kredit tashkilotlari - tegishli litsenziyaga ega bo'lgan banklar, mikromoliya tashkilotlari, lombardlar va boshqa kredit tashkilotlari' deb belgilanishi tizimning ko'p qatlamli institutsional tabiatini ifodalaydi. Bu tasnif auditor uchun audit subyekti va auditga tatbiq etiladigan standartlar majmuasini farqlash imkonini beradi. AXS 200 va AXS 300 har qanday audit subyektiga umumiy tarzda tatbiq etilsa-da, AXS 250 (qonun va me'yoriy talablarga muvofiqlik) bank litsenziyasi turiga qarab har xil mazmun kasb etadi.

Bank tizimi rivojlanishining yana bir ko'rsatkichi aktivlar sifati va muammoli kreditlar dinamikasidir. Markaziy bank byulletenida 2024-yil boshida muammoli kreditlar hajmi 21.003,7 mlrd so'm, ulushi 17,5 foiz bo'lganligi qayd etilgan, biroq tasnif metodikasining

o'zgarishi bilan bog'liq holda 2024-yil noyabrga kelib mazkur ko'rsatkich 4,2 foiz darajasida shakllangan. 2025-yil iyun ma'lumotlariga ko'ra jami kreditlar 567 685,2 mlrd so'mni tashkil etgan. Mazkur dinamika bank tizimining o'sishi bilan birga kredit portfeli sifati ustidan nazoratning kuchaytirilishini talab etadi.

Bank tizimi shakllanishining keyingi bosqichi institutsional diversifikatsiya bilan tavsiflanadi. Markaziy bank byulletenida ko'rsatilgan kapital yetarliligi, likvidlilik, aktivlar sifati, daromadlilik va moliyaviy barqarorlik kabi ko'p omilli indikatorlar tizimi bank tizimi rivojlanishini baholashning asosiy mezoniga aylangan. Bu esa bank auditining metodologik samaradorligi auditorning faqat standartlarni bilishi bilan emas, balki ularni bank sektorining murakkab iqtisodiy mohiyatiga mos ravishda qo'llay olish qobiliyati bilan belgilanishini anglatadi. Sivertsen va Hansen (2021) ham auditorlik amaliyotida ichki risklarni baholashning xalqaro standartlarga muvofiqlashtirilishi audit sifatining markaziy ko'rsatkichi ekanligini ta'kidlaydilar.

Bank auditining funksional qamrovini kengaytiruvchi yana bir omil - manfaatdor tomonlar yondashuvidir. Banklar omonatchilar mablag'lari, korporativ mijozlar resurslari, davlat dasturlari va moliyaviy tizim barqarorligiga daxldor bo'lgani sababli ularning audit xulosasi keng jamoatchilik uchun ahamiyatga ega bo'ladi. Shu jihatdan bank auditini xususiy buyurtma bo'lsa ham, uning natijasi jamoat manfaatiga xizmat qiladi. Hamdamov auditorlik nazoratini rivojlantirishning uslubiy asoslarini bozor iqtisodiyoti sharoitida muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlaganida, aynan shu manfaatdor tomonlar yondashuvini nazarda tutadi.

Bank auditining nazariy asoslarini chuqurlashtirishda audit obyekti va predmetining o'zaro nisbati masalasi alohida ahamiyatga ega. Karimov (2008) korporativ boshqaruv tizimida buxgalteriya hisobi va auditni takomillashtirishning yo'nalishlarini ko'rib chiqishda audit obyekti tashqi va ichki audit yondashuvlarining birgalikdagi qamroviga muhtoj ekanligini ko'rsatadi. Bank auditida obyekt - bu tijorat banki va uning ishtirokchilari (filiallar, sho'ba va qaram tashkilotlar, lizing va trust bo'linmalari) faoliyatidagi iqtisodiy hodisalar majmuasi bo'lsa, predmet - shu obyekt doirasida shakllanadigan moliyaviy va boshqaruv axborotining ishonchliligi va to'g'riligi masalasidir. Mazkur farqlash AXS 600 (guruh moliyaviy hisobotlari auditini) talablari nuqtai nazaridan amaliy ahamiyat kasb etadi: bank guruhi auditini obyekt sifatida ona tashkilot va uning sho'balarini, predmet sifatida ularning konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotini qamrab oladi.

Bank auditida nazariy asoslarni mustahkamlashning yana bir muhim qirrasini - audit dalillarining yetarliligi va maqbulligi konsepsiyasidir. AXS 500 audit dalillari yetarli (sufficient) va maqbul (appropriate) bo'lishi shartligini belgilaydi. Bank auditini sharoitida bu talab ayniqsa qiyin bajariladi, chunki banklar tomonidan amalga oshiriladigan operatsiyalar hajmi (Markaziy bank (2024) ma'lumotlariga ko'ra 2024-yil iyul holatida jami kreditlar 493 952,1 mlrd so'mni tashkil etgan) tanlama tekshiruv usullarining keng qo'llanishini taqozo etadi. Statistik tanlash, monetar birlik tanlash (MUS), riskka asoslangan tanlash usullari AXS 530 talablariga muvofiq bank auditida birgalikda qo'llanishi lozim. Bunda Avazov (2020) ko'rsatib bergan moliyaviy hisobot obyektlarini bir xil uslubda tan olish va baholash tartibi auditor uchun tanlash bazasini shakllantirishda asosiy mezon bo'lib xizmat qiladi.

Auditning xalqaro standartlari tizimida bank auditini nazariy asoslarini takomillashtirish institutsional jihatdan ham qo'llab-quvvatlanadi. Eltweri (2015) audit faoliyatini xalqaro standartlarga uyg'unlashtirish jarayoni mamlakatning huquqiy tizimi, kasbiy uyushmalar

faoliyati va o'rganish-malaka oshirish infratuzilmasiga bog'liq ekanligini empirik tarzda asoslagan. O'zbekiston Respublikasida bank auditining nazariy va metodologik bazasini xalqaro tajriba bilan uyg'unlashtirish - bu jarayonning bir necha bosqichini o'z ichiga oladi: auditning xalqaro standartlari milliy darajada qabul qilinishi, ularning amaliy qo'llanilishini metodik qo'llanmalarda mustahkamlash, audit firmalarida ichki sifat tizimlarining shakllantirilishi va auditorlar uchun uzluksiz kasbiy tayyorgarlikning amalga oshirilishi. Mazkur bosqichlarning izchilligi bank auditining nazariy salohiyatini kuchaytiradi va auditorlik fikrining bozor ishonchini oshiradi.

Tadqiqot natijalari bo'yicha quyidagi xulosalar shakllantirildi:

Bank auditining iqtisodiy mohiyati moliyaviy hisobot tekshiruvni doirasidan kengroq talqin qilinishi kerak: u bir vaqtning o'zida aktivlar sifati, kapital yetarliligi, likvidlilik, ichki nazorat muhiti va risk-menejment holatini qamrab oluvchi kompleks nazorat instituti hisoblanadi.

Bank auditining obyekti, predmeti va funksional qamrovi farqlanishi shart: obyekt - tekshiruvga tushadigan iqtisodiy hodisa va axborot birikmalarini, predmet esa shu obyekt doirasida vujudga keladigan iqtisodiy, tashkiliy va axborotga oid munosabatlarning mazmunini ifodalaydi.

Auditning xalqaro standartlari tizimida bank auditiga tatbiq etiladigan mezonlar umumiy va maxsus guruhlariga ajratilishi taklif etiladi. Umumiy mezonlar audit sifatining universal asosini, maxsus mezonlar esa bank sektorining tarmoq xususiyatlariga moslashish vositasini ifodalaydi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Guilavogui, A. (2021) Examining the Sufficiency and Appropriateness of Audit Evidence in the United States Banking and Securities Industries: doctoral study. - Lynchburg: Liberty University, 2021. - 326 p.
2. Hamdamov, B.Q. (2007) O'zbekiston iqtisodiyotining hisob va hisobot tizimida auditorlik nazoratini rivojlantirishning uslubiy asoslari: i.f.d. diss. avtoref. - Toshkent, 2007. - 35 b.
3. Hussain, D., Hussain, E. va Bidstrup, P.N. (2021) ISA 540 (revised): Accounting Manipulation: cand.merc.aud. thesis. - 2021. - 123 p.
4. Mamatov, Z.T. (2005) Xo'jalik yurituvchi subyektlarda moliyaviy hisobot auditini o'tkazishni takomillashtirish masalalari: i.f.d. diss. avtoref. - Toshkent, 2005. - 42 b.
5. Avazov, I.R. (2020) Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotni tuzish va auditini takomillashtirish: i.f.f.d. (PhD) diss. avtoref. - Toshkent, 2020. - 58 b.
6. Markaziy bank (2024) O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Statistika byulleteni. 2024-yil, dekabr. - Toshkent, 2024. - 128 b.
7. Markaziy bank (2025) O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Statistika byulleteni. 2025-yil. - Toshkent, 2025. - 130 b.
8. Tsurova, L.A. (2003) Audit dostatochnosti sobstvennogo kapitala kommercheskogo banka: avtoref. dis. k.e.n. - Moskva, 2003. - 28 s.